Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бартольд В.В. Сочинения. Том II, часть 1. М., изд-во Восточной литературы, 1963, 1020 с.

(2). Баскаков Н.А. Родоплеменные названия кыпчаков в топонимии Южной Молдавии. Топонимика Востока. Новые исследования. М., “Наука”, 1964, 63–75 с.

(3). Гордлевский В.А. Избранные сочинения. Том I, М., изд-во “Восточной литературы”, 1960, 551 с.

(4). Губаева С.С. Этнонимы и топонимии Ферганской долины. Автореф. дисс. … канд. ист. наук, М., 1973, 21 с.

(5). Дульзон А.П. Этнический состав древнего населения Западной Сибири по данным топонимии. Материалы XXV Международного конгресса востоковедов, М., “Наука”, 1960, 189–295 с.

(6). Задыхина К.Л. Узбеки дельты Аму-дарьи. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, т. 1, М., 1952, 319–426 с.

(7). Камалов С. Исторические корни дружбы узбекского и каракалпакского народов. “ӨзР ИА ҚБ хабаршысы”, Нөкис, 1993, № 4. 106–109-бетлар.

(8). Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005, 240-бет.

(9). Нуржонов К., Хўжаниёзов Ғ. Амударё. Тошкент, Тиббиёт, 2004, 152-бет.

(10). Отажанова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. Филол. фан. номз. … дисс., Тошкент, 1997, 139-бет.

(11). Турабов А. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларнинг таҳлили. Филол. фан. номз. … дисс., Тошкент, 1999, 154-бет.

(12). Хожаниязов Г., Джумашев А. Этнический состав Аральско-Кунградского владения в XVII–XIX вв. Забытая страница истории. Оазисы Шелкового пути. Сб. науч. ст., М., Исламская книга, 2018, 131–141 с.

(13). Шалекенов М.У. Взаимоотношения народов Приаралья в XVIII–XIX вв. Алматы, “Ғылым”, 1995, 192 с.

(14). Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз. … дисс., Тошкент, 2012, 123-бет.

(15). Эшов Б. Хива хонлиги (шайбонийлар, эронийлар, қозоқлар ва кўнғирот сулоласи). // http:// khorezmiy. uz/uz/pages/view/576

Atabayeva Nilufar Atamuratovna (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Fakultetlararo chet tillar” kefedrasi o‘qituvchisi; nilufaratabayeva1983@gmail.com)

TEODER DRAYZERNING “JENNI GERXARDT” ROMANIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR TARIJIMASIGA DOIR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada taniqli Amerika yozuvchisi Teodor Drayzerning “Jenni Gerxardt” romani misolida frazeologizmlar tarjimasi tahlil etildi. Ya’ni, roman matnida uchraydigan frazeologizmlarning o‘zbekcha shakli asliyat bilan solishtirilib, teng ekvivalentlik masalasi o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologik birliklar, ekvivalentlik, shaklan tenglik, muqobil variant, grammatik qurilish, ma’no va uslubiy vazifa, tarjimon mahorati.*

РОМАН ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА “ДЖЕННИ ГЕРХАРДТ”: О ПЕРЕВОДЕ ФРАЗЕОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье проанализирован перевод фразеологизмов на примере романа «Дженни Герхардт» известного американского писателя Теодора Драйзера. То есть узбекская форма фразеологии, встречающаяся в тексте романа, сравнивалась с оригиналом и изучался вопрос равнозначности.*

Ключевые слова: *фразеологизмы, эквивалентность, формальное равенство, альтернативный вариант, грамматическая конструкция, значение и структура, навыки переводчика.*

THEODORE DREISER’S NOVEL “JENNIE GERHARDT”: ON THE TRANSLATION OF PHRASEOLOGY

Annotation. *This article analyzed the translation of phraseological units on the example of the novel “Jenny Gerxardt” by the famous American writer Theodore Dreiser. That is, the Uzbek form of phraseology found in the text of the novel was compared with the original, and the issue of equivalence was studied.*

Key words: *Phraseological units, equivalence, formal equality, alternative option, grammatical construction, meaning and structure, translator’s skills.*

Kirish. Amerika adabiyotining yirik vakillaridan biri Teodor German Albert Drayzerdir (1871–1945). U yozuvchi va jamoat arbobi bo‘lgan, o‘zining qirq besh yillik ijodiy faoliyati davomida “Baxtiqaro Kerri” (“Sister Carrie”, 1900), “Jenni Gerxardt” (“Jennie Gerxardt”, 1911), “Sarmoyador” (“Financier”, 1912), “Amerika fojiasi” (“American tragedy”, 1925) va shu kabi ko‘plab yirik romanlar va hikoyalar yaratgan. Drayzer asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima etilgan. Shu jumladan, adibning bir qator roman

va hikoyalari o‘zbek tiliga bilvosita rus tili orqali o‘zbekchalashtirilgan. Binobarin, Drayzerning o‘zbek tarjimonlari Erkin Nosirov (“Baxtiqaro Kerri”, “Amerika fojiasi”, “Jenni Gerxardt” romanlari), Orif Hoji (“Qudratli Rurk” hikoya), Xolida Ahrorova (“Erk” hikoya), Saidjamol Saidmurodov (“Neft”, “Izg‘irinda”, “Omonat”, “G‘aroyib jumboq” hikoya) kabi mutarjimlar o‘tgan asrning 70–80-yillarida, asosan, rus tili orqali o‘zbekchalashtirib, kitobxonlarga taqdim etishdi. Mustaqillik yillarida jahon adabiyotining boshqa titan ijodkorlari singari, Teodor Drayzer asarlari ham asliyatdan ba’zi yosh mutarjimlar, jumladan, Qandilat Yusupova (“Qoracha Jef” hikoya asliyatdan tarjima) tomonidan o‘girila boshlandi. Adib asarlari, asosan, bilvosita til orqali tarjima qilingan. Shu bois badiiy tarjimada bilvosita tarjima jarayonida paydo bo‘ladigan muammolar va bu muammaolarni mahorat bilan hal eta olgan mutarjimlarning mahoratini (so‘z tanlash, yozuvchi uslubini adekvatga yaqinlashtirish, teng ekvivalentlik asosida ibora va xalq maqollari, idioma va obrazli ifodalarni to‘g‘ri tarjima qilish kabi) o‘rganish bugungi tarjimashunoslik fanining dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Teodor Drayzerning “Baxtiqaro Kerri”, “Amerika fojiasi”, “Jenni Gerxardt” romanlari o‘tgan asrning 70–80-yillarida mahoratli tarjimon Erkin Nosirov tomonidan o‘zbekchalashtirildi. Adibning “Jenni Gerxardt” asari 1911-yilda yozilgan. Asarning tarjima tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, roman 1951-yilda rus tarjimonlari Nora Gal va Mariya Loriye, 2018-yilda V.Barbasheva tomonidan rus tiliga o‘girilgan. O‘zbekistonda Daryzer asarlarining tarjimoni va targ‘ibotchisi Erkin Nosirov bo‘ldi. U 1982-yilda “Jenni Gerxardt” romanini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Mutarjim mazkur asarning voqea-hodisalar ko‘lamini, undagi qahramonlarning ichki kechimmalarini o‘sha davrning zahmatkash xalq hayotidagi qiyinchiliklarini kitobxon qalbiga chuqur yetkazib berishda o‘zining ulkan tarjimonlik mahoratini namoyish eta olgan.

Roman matnida uchraydigan turg‘un birikmalar, ya’ni, frazeologizmlar tarjimasiga diqqat qaratamiz. Frazeologik birliklarni tarjimada teng ekvivalentlik asosida qayta yaratish tarjimaning o‘ta murakkab, shu bilan birga, juda mas’uliyatli masalalaridan hisoblanadi. Frazeologik birliklarni tarjima qilish vaqtida vazifadosh, teng lingvistik birliklar ikki til o‘rtasida taqqoslab tanlanadi. Taqqoshlash jarayonida ular o‘rtasidagi ekvivalentlik yoki farqni tahlil etib, umumiy ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish mumkin. Ularning ba’zi qismlari shaklan teng (qisman yoki butunlay), ba’zilarining esa muqobil variant, umuman, topilmasligi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Taniqli tarjimashunos olim G‘.Salomov ekvivalentlik masalasi to‘g‘risida fikr bildirib, rus tili va o‘zbek tilidagi mutlaq ekvivalent bo‘lgan iboralarni misollar yordamida izohlab bergan. “Frazeologizmlar (maqol, matal va idiomalar)ning ma’nosi kontekst ichida ochiladi. Binobarin, muayyan iboraning ma’nosini ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash lozim. To‘g‘ri, ikki yoki bir nechta tilda ham shaklan, ham mazmunan, ham ma’noviy tarafdan aynan muvofiq keladigan mutlaq ekvivalentlar ham topiladi. Masalan, цытлят по осени считают–jo‘jani kuzda sanaydilar; покорную голову меч не сечет–egilgan boshni qilich kesmaydi; куй железо пока горячо–temirni qizig‘ida bos va hokazo. Biroq bunday mutlaq ekvivalentlar soni kam” [5;118-b.].

Frazeologik birliklar bir tildan ikkinchi tilga, asosan, to‘rt xil yo‘l bilan, asliyat tilidagi birlikka komponentlar tarkibi, grammatik qurilishi hamda ma’no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentlar, boshqa xossalari farq qilgani holda, ma’no va uslubiy vazifasi o‘xshash muqobil variantlar, kalka usulida va tasviriy yo‘sinda tarjima qilinadi.

Bu asar markazida ajoyib qalb sohibasi bo‘lgan qiz Jennining taqdiri turadi. Yaxshi niyatli, his-tuyg‘ulari beg‘ubor Jenni o‘zining halol mehnati bilan kun ko‘rishga, oilyjanob inson bo‘lib yetishishga intiladi. Biroq kapitalistik tuzumning yovuz kuchlari bu pokiza qiz taqdirini ham o‘z girdobiga oladi, sof muhabbatini paymol etadi. “Jenni Gerxardt” yozuvchining tengsizlik olamidagi inson taqdiriga bag‘ishlangan eng yaxshi asarlari qatorida turadi [2;3-b.].

“Jenni Gerxardt” romanida kambag‘al oiladan chiqqan qizning burjua jamiyatidagi fojiasi ko‘rsatilgan. Jenni bilan boy oilaning o‘g‘li Lester Keyn o‘rtasida muhabbat rishtalari bog‘lanadi. Kambag‘al Jenni boy oila farzandi Keyn bilan turmush qurolmaydi. Burjua jamiyati vakillari dunyoqarashlari, urf-odatlari ijtimoiy adolatsizliklar, tabaqalanish ularning muhabbatiga to‘sqinlik qiladi. Yozuvchi Jennining odobliligi, vafodorligi, pokiza ko‘ngil sohibasi ekanligini romanda badiiy ifodalaydi. Jenni o‘zining eng yaqin kishilari ota-onasi, qizi Vesta va sevgilisi Lasterdan ajraladi. Biroq bundan tushkunlikka tushmagan Jenni yetim bollalarni asrab olib, o‘z hayotini ularga g‘amho‘rlik qilishga bag‘ishlaydi. Asarda matonatli ayol obrazi badiiy talqin etilgan.

Frazeologik birliklarni ekvivalentlar vositasida tarjima qilish borasida, Q.Musayevning fikriga ko‘ra, turli xalqlar frazeologik birliklarining bir-birlariga har jihatdan o‘xshashligi, aksariyat hollarda, xalqlar tur-

mush sharoitlari, urf-odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar [4;185-b.]. Masalan ingliz tilidagi *believe ones (own) eyes* [3;282-b.] iborasi o'zbek tilidagi *ko'zlariga ishonmaslik* iborasining ma'nosini beradi. Aynan "Jenni Gerxardt" romanida uchraydigan frazeologizmlarning ruscha-o'zbekcha tarjima nashrlarini asliyat bilan qiyosan o'rnamiz.

Asliyatda: *"Neither Gerxardt nor the mother* ***could believe their eyes*** *when a grocery wagon halted in front of their cottage and a lusty clerk began to carry in the gifts".*

Erkin Nosirov yaratgan o'zbekcha tarjimada yuqoridagi parcha quyidagicha o'girilgan:

O'zbekchada: *"Baqqolchilik magazinining soyavon aravasi eshiklari oldida to'xtab, barvasta dastyor paketlarni ichkariga olib kira boshlaganida, er-xotin* ***o'z ko'zlariga ishonishmadi"*** [2;29-b.].

Ingliz tilidagi *find one's tongue* (F 304) iborasi o'zbek tilida ham *tili kalimaga kelmaslik,* ya'ni, biror narsadan hayratlanib, hech nima aytolmaslik ma'nosini ifodalaydi. Aynan shu ibora romanda Jenni Gerxardtning ruhiy holatini obrazli ifodalashda ishlatilgan.

Asliyatda: *"Jennie came forward, extending her hand and blushing. She found herself so much disturbed by this visit that* ***she could hardly find tongue*** *to answer his questions"* [1;20-b.].

O'zbekchada: *"Jenni unga yaqinlashdi-da, qizarib qo'l uzatdi. Senatorning kelganidan, azbaroyi hayajonga tushganidan* ***tili kalimaga kelmasdi"*** [2;34-b.].

Tahlil va natijalar. Muallif "Jenni Gerxardt" romani matnida yuzlab frazeologizmlarni qahramonlarning ruhiy holatini, amerikalik odamlarning o'ziga xos gapirish uslubini, milliy koloritini ishonarli va jonli, aks ettirish uchun mahorat bilan foydalangan. Quyidagi jadvalda Teodor Drayzer roman matnida qo'llagan iborali parchlarni hamda Erkin Nosirov tarjimasida aynan o'sha parchalarni namuna sifatida keltiramiz.

Asliyatda	Tarjimada (Erkin Nosirov tarjimasi)
1.Wash one's hands of smth (H. 209) *"She must go out! out!! out!!! She has become a street-walker, that's what she has become. She has set herself right to go to hell. Let her go.* ***I wash my hands of the whole thing.*** *This is enough for me"* (J.G. 47 p.)	***1. Qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq.*** *Qizing endi ko'zimga ko'rinmasin! Daf bo'lsin!!!..., ha, xuddi shunday. Endi uning boradigan joyi bitta – jahannam! O'sha yoqqa boraversin.* ***Undan qo'limni yuvib qo'ltig'imga urdim****. Basharasi qursin* (J.G. 74-bet).
2. One's right hand (R. 258). *Robert, the eldest, a man forty years of age,* ***was his father's right-hand man*** *in financial matters,...* (J.G. 109 p.).	***2. Kimningdir o'ng qo'li bo'lmoq.*** *Robert moliyaviy masalalarda ko'pdan buyon otasining* ***o'ng qo'li bo'lib qolgandi*** (J.G.117-bet).
3.Take somebody at his word (W 672). *Suppose she went on to inform him that she had a child, and beg him to leave her in peace. Would he obey her? She doubted it.* ***Did she really want him to take her at her word?*** (J.G.114 p.).	***3. O'z tilidan ilintirmoq.*** *Boringki, Jenni unga bolasi borligini aytib, tinch qo'yishini iltimos qildi ham deylik. Gapiga Lester quloq solarmikan? Solmasa kerak. Jenni ham* ***Lester tilidan ilintirishini*** *istarmidi deysiz?* (J.G.123-bet).
4.To slip like a thief. *That's what comes of such conduct in the first place. Now* ***she has to slip around like a thie*** (J.G. 135 p.).	***4. chap bermoq*** *Qizlar to'g'ri yurmagandan keyin keti shunaq abo'ladi. Endi huddi* ***o'g'riday chap berishiga to'g'ri keladi****.* (J.G. 144 bet)
5.to blind somebody	***5. Ko'zini tindirmoq.***

Then, too, his attitude, in spite of the money ***which had first blinded them****, was peculiar. He really did not carry himself like a married man* (J.G. 138 p.).	*Buning ustiga, garchand saxiyligi dastlabki paytlarda Gerxardtlarning* ***ko‘zini tindirib qo‘ygan bo‘lsada****, Lester ham o‘zini g‘alati tutardi.* (Jenni Gerxardt. 147-bet).
6.To have claim on somebody. Should he forsake Jennie?–that thought also, came to him. ***She had no claim on him.*** She could make no protest (J.G.144 p.).	***6. Kimgadir osilib olmoq.*** Bunda Jennini qurbon qilishga to‘g‘ri kelmasmikan? Bu narsa ham uning hayolig akeldi. ***Jenni unga osilib ololmaydi*** (J.G. 154-bet).
7.To kiss one’s feet. ***She could have kissed Lester's feet*** *for his goodness to her family* (J.G. 162 p.).	***7. Oyoqlarini o‘pishga ham tayyor bo‘lmoq.*** *Oila a’zolariga bunchalar yaxshilik qilayotganidan hozirda Lesterning* ***oyoqlarini o‘pishga ham tayyor edi*** (J.G. 146-bet).
8.Put one’s nose in (N 229). “Damn him!” said Lester fiercely. “What the devil does he mean by ***putting his nose in my private affairs***? (J.G. 303 p.).	***8.Birovning ishiga tumshug‘ini tiqmoq.*** *–Ming la’nat!–Lester yomon so‘kindi.–Mening ishlarimga* ***tumshug‘ini tiqishga*** *qanday jur’at etdi!* (J.G. 279-bet).

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi misollardan ayon bo‘lmoqdaki, mahoratli tarjimon Erkin Nosirov buyuk amerika adibi T.Drayzerning “Jenni Gerxardt” romanida uchraydigan frazeologizmlarni o‘ta nozik did bilan o‘zbek tilida jaranglata olgan. Zero, iboralar badiiy matn tarkibida qahramon nutqini, psixologik holatini, muallif bayonini bezovchi muhim badiiy til unsure hisoblanadi. E.Nosirov mazkur romanni o‘zbekchalashtirishda rus tarjimonlarining tarjima nashrlariga suyanib, Drayzer matnini qaytadan o‘zbek tilida muvaffaqiyat bilan yaratishga erishgan.

Amerikaning mashhur yozuvchilaridan biri U.Folkner: “Rus adabiyoti Gogolnig “Sheneli”dan chiqqani kabi, biz Drayzerning romanlaridan chiqqanmiz”, deb aytgan edi [6;320-b.].

Mahoratli mutarjim Erkin Nosirov Amerika adabiyotining yirik romannavisi T.Drayzerning ko‘plab romanlarini tarjima qilib, o‘zbek kitobxonlariga uning nomini va yetuk badiiy asarini tanitishga katta hissa qo‘shdi.

Zahmatkash tarjimon Erkin Nosirov tarjimaning ijodiy jarayon ekanini to‘g‘ri anglagan holda roman matnida uchraydigan yuzlab frazeologizmlarni teng ekvivalentlik, kalkalab tarjima qilish, uslubiy moslashtirish, qisman tarjima usullaridan foydalanib, adekvatga yaqin tarjimani yaratishga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Dreiser T. Jennie Gerhardt. United States of America Copyright, by Boni & Liveright, Inc. Printed in the, 1911, 448 p.
(2). Драйзер Т. Женни Герхардт. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1982, 324 бет.
(3). Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. Москва, “Русский язык”, 1984, 942 с.
(4). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 2005, 352 bet.
(5). Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 232 бет.
(6). Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. Toshkent, “Akadem nashr”, 2024, 320 bet.

Abdusattarova Shaxlo Toshtemirovna (Nukus Innovatsion instituti “Filologiya va tillarni o‘qitish” kafedrasi assistent o‘qituvchisi)

EMOTSIYALARNING O‘ZIGA XOSLIGI, KONSEPTUALLASHUV JARAYONLARI

Annotatsiya. *Maqolada konsept atamasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan hamda u haqida turli olimlarning qarashlari, emotsiya, emotsionallik konseptlari va konseptuallashuv jarayonlari, ijobiy emotsional konseptga namuna va uning lug‘aviy ma’nolari hamda o‘sha emotsional birlikni kontekstda foydalanilgan namunalari keltirilgan.*